

# Bola va Zamon

Научно-популярный журнал детской и возрастной консультации

2 2022

## Развитие здоровьесберегающей компетенции у будущих специалистов дошкольных образовательных организаций

## Muloqot – kommunikativ kompetentlilikning asosi sifatida

Bola va Zamon / № 2 / 2022

**Bola va Zamon**

**2 / 2022**

**Tahrir kengashi a'zolari:**

B.O. Saidov, B.A. Musayev,
A. Toshqulov, A.V. Shin

**Tahrir hay'ati a'zolari:**

Yaxnyayeva Muxayo Shurniyazovna
bosh muharrir o'rinbosari;
Alimova Vasila Sattarovna
tibbiyot fanlari nomzodi;
Abdurasulova Qumri
yuridik fanlar doktori;
Ismailov Baxadir Islamovich
yuridik fanlar doktori;
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori;
Isroilova Nodira Achilbayevna
falsafa fanlari nomzodi;
Muminova Lola Raximovna
pedagogika fanlari doktori;
Musurmanova Oynisa Musurmanovna
pedagogika fanlari doktori;
Safayev Nuriddin Salixovich
psixologiya fanlari doktori;
Sharipova Dilyara Djumaniyazovna
pedagogika fanlari doktori;
Sharipova Madina Karimovna
tibbiyot fanlari doktori;
Xrul'nova Gelena Vyacheslavovna
psixologiya fanlari nomzodi;
Qodirov Botir Raxmonqulovich
psixologiya fanlari doktori.

**Jurnalning ushbu soni uchun mas'ul xodimlar:**

Viktor Sattarov (mas'ul kotib);
Yelena Kalinina,
Nargiza Qahharova (musahhihlar);
Sherzod Alimov (fotograf).

Jurnal O'zR VM huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Prezidiumining 2006 yil 26 oktyabridagi 128/4-sonli qarori bilan **yuridik** fanlar bo'yicha, 2007 yil 29 martidagi 133/4-sonli qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha ilmiy daraja talabgorlari chop etishi lozim bo'lgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

**Ta'sischilar:** Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, "Sen Yolg'iz Emassan" Respublika bolalar jamoatchilik jamg'armasi.

Nashr O'zbekiston matbuot va axborot agentligida ro'yxatdan o'tgan. Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma raqami 0168; 2007-yil 11-yanvar.
ISSN 2181-5496

**Tahririyat manzili:** 100100, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Abdulla Qahhor ko'chasi, 34-uy.
**Telefonlar:**
+998-71-281-59-30; 281-50-18; 281-49-54 (faks)
**El. pochta:** bola-zamon@umail.uz
**Veb-sahifa:** www.rcsad.uz
**Ijtimoiy tarmoqdagi sahifa:**
www.facebook.com/bolavazamon

Obuna indeksi: 1127. Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.
Jurnal bosishga ruxsat etildi: 04.05.2022.
Chiqarilgan sanasi: 07.05.2022. Buyurtma: №230.
Adadi: 50 nusxa. Bahosi: "Kelishilgan narxda".
Jurnal "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent sh., TAKD, 11 km, 10-uy.

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz yozilmaydi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

## PSIXOLOGIYA VA TIBBIYOT / ПСИХОЛОГИЯ И МЕДИЦИНА


- Bolada altruizmni rivojlanishiga milliy qadriyatlarning ta'siri — 2
- Социально-психологические особенности буллинга среди подростков — 4
- Ota-ona obro'si xarakteri – bola shaxsida xulq-atvor komponentlari rivojining omili sifatida — 7
- Maishiy zo'ravonlik – ijtimoiy-psixologik muammo sifatida — 10
- Migrantlarning o'smir yoshdagi farzandlarida ijtimoiy moslashuv muammosi — 12
- Yoshlar iqtisodiy ijtimoiylashuvining ijtimoiy-psixologik determinantlari — 14
- Копинг-стратегии как способ преодоления стресса — 17
- Bolalarda stressogen faktorlar natijasida agressiv xulq-atvorning vujudga kelish mexanizmlari — 20
- Affiliatsiya motivatsiyasining talabalar guruhi ma'naviy barkamolligida tutgan o'rni — 22
- Эмоционально-волевые особенности человека в экстремальных ситуациях — 26
- Mehnat migrantlarining farzandlari: ularda yuzaga keladigan o'zgarishlar, psixologik korreksiyalash masalalari — 28
- Oilalarda voyaga etayotgan bolalarda hasad hissi shakllanishining psixologik determinantlari — 30
- Muloqot – kommunikativ kompetentlilikning asosi sifatida — 32
- Bolalarda iqtisodiy tasavvurlarni shakllanishining psixologik xususiyatlari — 34
- Internetga tobelik: dunyo bo'ylab o'smirlar psixikasiga ta'siri yuzasidan tadqiqotlar natijalari — 36
- Zamonaviy bo'lajak pedagoglarda pozitiv fikrlash – inson farovonligi, salomatligi va kasbiy muvaffaqiyati omili sifatida — 39
- Diqqatni jamlash va uning barqarorligini rivojlantirish – psixologik muammo sifatida — 42


## PEDAGOGIKA VA TA'LIM / ПЕДАГОГИКА И ОБРАЗОВАНИЕ


- Оценка качества профессионального образования в контексте международных стандартов — 45
- Maktabgacha 5-7 yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda loyiha texnologiyasidan foydalanish — 48
- Развитие здоровьесберегающей компетенции у будущих специалистов дошкольных образовательных организаций — 51
- Matematik topishmoqlar yordamida bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari — 54
- Maktabgacha yoshdagi katta guruh bolalarida ijtimoiy intellektni rivojlantirish masalalari — 56
- Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari boshlang'ich sinflarida korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish — 58


## MAXSUS PEDAGOGIKA / СПЕЦИАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИКА


- Nogironlikka ega talabalarni masofaviy o'qitishda "DEF Akademiya" mobil ilovasining o'rni — 61
- Duduqlanish: erta tashhis va duduqlanishning namoyon bo'lish darajalari — 64


## IJTIMOIY ISH / СОЦИАЛЬНАЯ РАБОТА


- Статусы риска и вовлеченность родителей в жизнь ребенка: теоретический анализ факторов, представленных в зарубежной литературе — 66

# Maktabgacha 5-7 yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda loyiha texnologiyasidan foydalanish

**Tarmiza XURVALIEVA**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSs)

**Rano NOSIROVA**

Maktabgacha talim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

**Tayanch so'zlar:** raqobatbardoshlik, kognitiv, motivatsiya, modernizatsiya, innovatsion texnologiya, loyiha, "Men" konsepsiyasi, individual, tafakkur, axborotli, differensiatsiya, mantiqiy tafakkur, integrativ, ijtimoiy munosabat, organizm, predmet, ehtiyoj.

**Annotaciya / Аннотация / Abstract**

**UZ.** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirishning samarali yo'llari haqida olimlarning ilmiy-metodik qarashlari ilgari surilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayonida loyiha texnolgiyasidan foydalanish bo'yicha metodik ko'rsatma keltirilgan.

**RU.** В статье представлены научно-методические взгляды ученых на эффективные способы ознакомления детей дошкольного возраста с миром. А также рекомендации по использованию проектной технологии в дошкольном образовании.

**EN.** The article presents the scientific and methodological views of scientists on effective ways to familiarize preschool children with the world. As well as recommendations on the use of project technology in preschool education.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida sifatli ta'limni tashkil etish, xususan maktabgacha ta'lim sohasini takomillashtirishdan kutilayotgan muhim natija bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularda raqobatbardoshlik, yangicha fikrlash, kognitiv rivojlanish motivatsiyasini kuchaytirish, yuksak ma'naviy fazilatlar hamda shaxs sifatlarini tarbiyalash hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim jarayonini modernizatsiyalash – ta'limni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, ta'lim tizimini nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etishni nazarda tutadi [1; 342]. Bilimlar tizimini o'zlashtirish bolalarda atrof-olamga ongli munosabatni shakllantiradi. Bolalarda qiziquvchanlik namoyon bo'ladi, ko'proq bilishga harakat qiladilar. O'simlik va hayvonlarning ehtiyojini bilishi, tirik organizm ekanligi, ularni parvarishlash va qayg'urish kerakligini anglagan bola ularni parvarishlashning turli usullarini o'zlashtirishga harakat qiladi. Ijobiy xatti-harakatlar bolada atrof-muhit va tabiatni asrash xulq-avtorini mustahkamlaydi. Biroq atrof-muhitni asrash, unga ijobiy munosabat faqatgina bilimlarni o'zlashtirish bilan shakllanmaydi. Mehnat faoliyati tabiat va unga g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ya.A. Komenskiy "onalar maktabi dasturiga elementar tabiatshunoslik bilimlarini berish lozimligini kiritgan. Bola atrof-olamni bevosita o'rganishi zarur, bilimlarni qanchalik his qilish orqali egallasa, u shunchalik haqiqiy bilim bo'ladi. Agarda biz atrofdagi borliqni yashirin sirlari va noyob xususiyatlarini o'rgatsak, ularni kuzatish va his qilish orqali asoslab bersak ularda bilimlar mustahkam bo'ladi", – deb ta'kidlaydi [3; 27-30]. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik jarayonni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishga ehtiyoj mavjud. Chunki texnologiyalar nafaqat ta'lim mazmunini rivojlantirish, balki maktabgacha ta'lim har tomonlama sifatli bo'lishini ta'minlashda ham qo'l keladi. Bolalarga ushbu yondashuvni amalga oshirishda pedagogik munosabatlarning insoniyligi, demokratlashtirilganligi, avtoritar usuldan voz kechish, bolaning yosh xususiyatini inobatga olish tamoyiliga yangicha nuqtai nazar, ijobiy «Men» konsepsiyasini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, bolaning ehtiyoji, qiziqishi va individual tanlovi, mustaqilligi va ijobiy munosabatiga e'tibor qilinadi. Bolaning individualligini rivojlantirishni ta'minlaydi.

V. Loginova va I. Babaevalarning fikricha: "6-7 yoshdagi bolalarda "Inson-tabiat-jamiyat" tizimining aloqadorligi va qonuniyatlarini tasavvur qilish jarayoni hosil bo'ladi. Mavjud va mavjud bo'lmagan tabiiy ob'ektlarni belgilari asosida differensatsiya (tabaqalashtirish) jarayoni kechadi. O'zaro munosabatlar tushuntiriladi, ijti-

moiy munosabat va tabiat olamining o'zgarishlari qonuniyatlari, elementar aloqalari o'rgatiladi" [4]. Mana shunday tarzda bolalar atrof-olam va borliqdagi predmet, hodisalar, ularning sabab va oqibatlarini anglaydilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida muvaffaqiyatli pedagogik jarayonning asosiy shartlaridan biri pedagogik jamoa va ota-onalarning hamkorligi hisoblanadi. Hamkorlikning asosiy shakllaridan biri oila bilan "MTT-bola-ota-ona" o'rtasida o'tkaziladigan integrativ mashg'ulotlardir. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda hamkorlikda amalga oshiriladigan texnologiyalarlan biri – Loyiha texnologiyasidir. Loyiha texnologiyasi ta'limiy jarayonni takomillashtiradi, bunda yangi shakllardan foydalaniladi, bolalarda ijodiy tafakkur rivojlanadi. Mazkur texnologiya bolani atrof-olamni o'zlashtirishga undaydi, voqea-hodisa va narsa-buyumlarni kuzatish, tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada, ularda taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash ko'nikmalari shakllanadi, ijodiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va dunyoqarash kengayadi.



Maktabgacha ta'lim jarayonida quyidagi loyiha turlaridan foydalanish mumkin:

**1 Ijodiy tadqiqot.** Bunda bolalar tajriba o'tkazadi, natijalarni tasviriy faoliyat (rasm chizish, loy va plastilindan yasash, qurish-yasash) va sahnalashtirish orqali ifodalaydi.

**2 Rolli o'yin.** Ijodiy o'yin elementi namoyish etiladi, bolalar turli ertak qahramonlari rolini ijro etishi bilan qo'yilgan muammoni o'z qarashi bo'yicha hal qiladi.

**3 Axborotli va amaliy yo'naltirilgan.** Bolalar ma'lumotlar to'playdi va ularni ijtimoiy qiziqishlariga ko'ra amalga oshiradi. Maydoncha va guruh xonasini bezatadi.

**4 Ijodiy.** Bayram ertaligi va bolalarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi tashkil etiladi. Har chorakda "Ijodiy ishlar festivali" o'tkaziladi.

Loyiha ustida ishlash bolalarni Davlat talabi (jismoniy rivojlanish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) sohalari yuzasidan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llashni ta'minlaydi va sezilarli darajada natijaga erishadi.

Loyiha texnologiyasi maktabgacha ta'lim jarayonida integratsiyaning bir ko'rinishi hisoblanadi. Loyiha mavzusi "Ilk qadam" davlat dasturiga asoslanib tanalanadi.

**Loyiha texnologiyasi quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:**

**1-bosqich** – maqsadni belgilashga yo'naltirilgan bosqich bo'lib, tarbiyachi bolaga dolzarb va unga tanish bo'lgan vazifani tanlashga yordam beradi. Bu bosqichda tarbiyachi loyiha muammosi va maqsadini shakllantiradi. Loyiha uchun o'quv materiali ajratiladi. Bolalarga o'yin yoki syujetli vaziyatlarni aytadi, so'ng topshiriq shakllantiriladi. Bolalarning mazkur bosqichdagi vazifasi loyiha maqsadi va topshirig'ini tushunish, muammoning mohiyatini anglash hamda o'yin vaziyatini tanlashdan iborat bo'ladi. Tarbiyachining harakati bolalarda hayotiy faol qarashlarni shakllantirishga qaratiladi. Bolalar atrofdagi qiziqarli voqea va hodisalarni mustaqil topa olishi lozim.

**2-bosqich.** Tarbiyachi bolalarga qo'yilgan topshiriqlarni bajarishga qaratilgan faoliyatni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. Bolalar o'rtasida rollar taqsimlanadi.

**3-bosqich.** Loyihaning amaliy qismi. Tarbiyachi bolalarga amaliy yordam ko'rsatadi hamda loyihani amalga oshirishga yo'naltiradi va nazorat qiladi. Bolalarda rivojlanish sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalar shakllanadi.

**4-bosqich.** Natijalarni baholash. Loyiha faoliyatini ommaviy tarzda namoyish etish. Bolalar shaxsiy ijodiy ishini turli shaklda pedagoglarga taqdimot qiladi. Tarbiyachi bolalar faoliyatini videolavhaga yoki rasmga tushirib oladi va keyin mazkur jarayonlarni slayd-taqdimot orqali ko'rsatadi. Ijodiy ishlarni baholash va refleksiya jarayoni hamda natijalarni aniqlashga bolalar jalb etiladi. Ref-

**1-jadval. Loyiha texnologiyasi haritasi**

| Loyiha bosqichi | Rivojlantiruvchi muhit | Kerakli manbalar | Bolalarning ijodiy faoliyati |
|---|---|---|---|
| Bolalar bugʻdoy bilan tanishadi | "Ilm-fan va tabiat" markazida bugʻdoy umumiy qutiga solib qoʻyiladi | Bugʻdoy doni va boshoqlar, quticha. | Oila va MTTda bugʻdoy unishini kuzatadi. "NBIC" texnologiyasi qoʻllaniladi |
| Bugʻdoy donidan maysa chiqishi va oʻsishi haqida maʼlumot oladi | "Ilm-fan va tabiat" markazida quti yoki yer maydonchasiga bugʻdoy ekiladi | Bugʻdoy uchun suv, oʻgʻit va tuproq | Oilada bugʻdoy oʻsishi oʻlchanadi |
| Bugʻdoyni parvarish qiladi | Ekilgan bugʻdoyga suv quyiladi | Bugʻdoy doni boshogʻi va maysa rasmi yoki u aks ettirilgan videolavha. | Dehqonlar bugʻdoyni parvarishlashini kuzatadi |
| Bugʻdoyning (maysa) oʻsishini kuzatadi | Bolalar bugʻdoy maysasining oʻsishi, rangi, yumshoqligini kuzatadi. Bio-texnologiya amalga oshiriladi | Bugʻdoy maysasi mikroskopda kuzatiladi. | Bugʻdoydan tayyorlanadigan milliy taomlar: sumalak, halim haqida videorolik tomosha kilinadi |
| Pishib yetilgan bugʻdoy boshogʻini kuzatadi | Bugʻdoy boshogʻi terib, doni ajratib olinadi | Bugʻdoy donidan un tayyorlash uchun un tegirmoni yoki un zavodi haqida videorolik | Bugʻdoy donidan milliy taom (halim yoki goʻja) tayyorlashni kuzatadi |
| Un mahsuloti bilan tanishadi | Guruhda un va un mahsuloti koʻrgazmasi tashkil etiladi | Undan tayyorlangan mahsulotlar (non, non va makaron mahsulotlari) | Non va pishiriqlar tayyorlanishini kuzatadi |
| Undan non uchun xamir tayyorlaydi | "Sanʼat" markazida xamir qoriladi va non yasaladi | Non turlari aks ettirilgan videolavha, rasmlar | Onalari bilan non tayyorlash jarayonida qatnashadi |
| Non pishirish jarayonini kuzatadi | Oshxonada oshpaz tomonidan non pishiriladi. Non yasash uchun kerakli jihozlar ajratiladi | Non pishiradigan pechlar, tandirlar haqida rasmlar va videolavhalar | Tandir yoki pech, nonvoyxona bilan tanishadi, nonvoy ishini kuzatadi |
| Nonni eʼzozlash haqida rolli oʻyin oʻtkaziladi | "Syujetli-rolli oʻyinlar va dramalashtirish" markazida Alisher Navoiyning "Non hidi" hikoyasi sahnalashtiriladi | Non haqida maqollar aks etgan plakatlar, rivoyat va ertaklar aks etgan videolavhalar | Oilada non ushogʻi va qotgan nondan ovqatlar tayyorlashni kuzatadi, qushlar va baliqlarni non ushogʻi bilan boqadi |
| Refleksiya bajarilgan ishlar tahlil qilinadi | Bolalar nonning paydo boʻlishi boʻyicha suhbatlashadi. Kattalar (dehqon, nonvoy) mehnatini qadrlash boʻyicha maʼlumotlar umumlashtiriladi | Nonvoy mehnati uchun kerakli jihozlar | Nonni qadrlash va uvol qilmaslik haqida rivoyat va ertaklar soʻzlab beradi |

leksiya oʻtkazish bajarilgan ishlarni anglash va tushunib etishga yordam beradi, shaxsiy sifatlar, yaʼni masʼuliyat, qatiyat, tashabbuskorlik rivojlanadi. Inson isteʼmol qiladigan ozuqalar va ularning yaratilishi boʻyicha suhbat va turli loyihalar oʻtkazish mumkin. Quyida loyiha texnologiyasi asosida 5-7 yoshli bolalar bilan "Bugʻdoy boshogʻidan nongacha" mavzusida ota-onalar hamkorligida oʻtkaziladigan mashgʻulot namunasi keltiriladi.

**Maqsad:** Nonning paydo boʻlishi boʻyicha tasavvurlarini kengaytirish. Nonni eʼzozlash va tejamkorlikka oʻrgatish.

**Jihozlar va materiallar:** bugʻdoy boshogʻi, qutichalar, tuproq va oʻgʻitlar. Tarbiyachi bolalarga qutichalardagi bugʻdoydan bir siqimdan beradi. *(1-jadval)*

Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyatda metod va texnologiyalardan tizimli foydalanish, oldindan belgilangan maqsadga erishishni kafolatlaydi. Ushbu loyiha oilalar va maktabgacha taʼlim tashkiloti oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

**Adabiyotlar:**

1. Pedagogika: Ensiklopediya. II jild. – T.: Oʻzbekiston milliy enliklopediyasi, 2015. 376 b.
2. Поддьяков А.Н. Развитие исследовательской инициативности в детском возрастетема. // Дисс д.пс.н. – М., 2001. 350 с.
3. Пережовская А.Н. Вклад Я.А.Коменского в развитие педагогической науки. // Инновационные педагогические технологии: материалы II Междунар. науч. конф. – Казань: Бук, 2015. С. 27-30.
4. Логинова В.И, Бабаева Т.И, Ноткица Н.А и друг. Детство: Программа развития и воспитания детей в детском саду. – Детство-Пресс, 2004. 244 с.
5. Лотенко Н.О. Инновационная деятельность как тенденция развития высшей школы в России. // Известия Саратовского университета. Новая серия. Социология. Политология, 2010. С 51-53.